



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 22-noyabr

663-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 20-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublikada 2024-2025-yillarda elektromobillardan foydalanish infratuzilmasini kengaytirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 1-noyabrdagi 732-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 565-6-0-Q/24-son qarori haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublikada 2024-2025-yillarda elektromobillardan foydalanish infratuzilmasini kengaytirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 1-noyabrdagi 732-son hamda shu mazmundagi viloyat hokimining 2024-yil 20-noyabrdagi 565-6-0-Q/24-son qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 20-noyabrdagi 565-6-0-Q/24-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-noyabrdagi 732-son qarori bilan: quyidagilar:

Avtoturargohlar, ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralarida elektromobillarni quvvatlantirish stansiyalarini o‘rnatishning maqsadli ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

Savdo va biznes markazlari, umumiy ovqatlanish korxonalari, mehmonxona va ko‘p kvartirali uy-joylar atrofida elektromobillarni quvvatlantirish stansiyalarini o‘rnatishning maqsadli ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq;

Avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalarida elektromobillarni quvvatlantirish stansiyalarini o‘rnatishning maqsadli ko‘rsatkichlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Qurilishva uy-joykommunal xo‘jaligi vazirligi, Energetika vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining quyidagi takliflari ma‘qullanganligi:

2025-yil 1-fevraldan yangi loyihalashtiriladigan davlat organlari, savdo va biznes markazlari, ko‘ngilochar va dam olish maskanlari, avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalarida, mehmonxonalar, xalqaro va davlat ahamiyatidagi avtomobil yo‘llari bo‘yidagi infratuzilma obyektlarida avtoturargohlarning kamida 5 foizini (lekin, bitta joydan kam bo‘lmagan holda) elektromobillarni quvvatlantirish stansiyalarini (keyingi o‘rinlarda - stansiyalar) joylashtirish uchun ajratish;

aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini, yuqori va past kuchlanishli tarmoqlarni modernizatsiya, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash dasturlarini ishlab chiqishda stansiyalar hamda ularning yagona elektr energetikasi tizimiga yuklamasini inobatga olish;

yakka tartibdagi va ko‘p kvartirali uy-joylar hududida, shu jumladan, ko‘p kvartirali uy-joylar avtoturargohlarida eng yuqori quvvati 22 kVt bo‘lgan stansiyalarni o‘rnatish;

tadbirkorlik subyektlari tomonidan mavjud ko‘p kvartirali uy-joylarning faqat avtoturargohlarida stansiyalar o‘rnatish;

Davlat tasarrufida bo‘lgan bo‘sh turgan, shuningdek, davlat organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, davlat ishtirokidagi korxonalar hududida stansiyalarni o‘rnatish joyini “K-SAVDO” AAT orqali elektron onlayn-auksionga (keyingi o‘rinlarda - auksion) chiqargan holda ijaraga berishga ruxsat etilganligi, bunda:

a) o‘rnatish joylari quyidagi mezonlarda “yashil” va “sariq” toifalarga bo‘linishi:  
stansiyalarni qurish uchun barcha sharoitlar mavjud bo‘lgan o‘rnatish joylari “yashil” toifa;  
stansiyalar uchun qo‘shimcha kommunikatsiya tarmoqlarini qurish talab etiladigan o‘rnatish joylari “sariq” toifa sifatida belgilanishi va qo‘shimcha kommunikatsiya tarmoqlarini qurish ishlari auksion g‘olibi tomonidan amalga oshirilishi;

b) hududlarda elektr ta‘minotining texnik holati va mavjud quvvatlardan kelib chiqib, stansiyalar o‘rnatiladigan hududlar 120 oygacha foydalanish huquqi asosida auksion orqali sotilishi yoki ijaraga berilishi mumkinligi;

belgilanishicha, ijaraga beriladigan joyda 6 oy mobaynida auksion g‘olibi tomonidan stansiyalar o‘rnatilmagan taqdirda, ijara shartnomasi belgilangan tartibda bekor qilish choralari ko‘rilishi hamda ushbu yer uchastkasi, ko‘chmas mulk (ko‘chmas mulkning bir qismi) qaytadan auksionga chiqarilishi e‘tiborga olinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abdusalomov, tuman hokimining o‘rinbosari H.Boylarov:

bir oy muddatda “Mingbuloq elektr tarmoqlari” korxonasi (B.G‘ulomqodirov) bilan birgalikda stansiyalarni joylashtirish imkoniyati mavjud yer uchastkalarida texnik jihatdan elektr tarmoqlariga ulanish yuzasidan sharoitlar mavjudligini aniqlasin;

ikki oy muddatda Kadastr agentligi tuman bo‘limi (A.Shodmonov) hamda manfaatdor tashkilot va idoralar bilan birgalikda tadbirkorlik hamda shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun tanlanib, binolarni qurish uchun rad etilgan va ko‘rib chiqish jarayonida turgan yer uchastkalarida stansiyalarni o‘rnatish imkoniyatini o‘rganib chiqsin;

uch oy muddatda Davlat soliq inspeksiyasi (J.Anvarov) stansiyalarni joylashtirish imkoniyati mavjud bo‘lgan o‘rnatish joylari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-noyabrdagi 732-son qaroriga ilovalarda keltirilgan maqsadli ko‘rsatkichlarga muvofiq auksion savdolariga chiqarilishini ta‘minlasin.

4. Ichki ishlar bo‘limi joriy yil yakuniga qadar hududlarda stansiyalarni mavjudligini ko‘rsatuvchi yo‘l belgilarini o‘rnatishni ta‘minlasin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abdusalomov va tuman hokimining o‘rinbosari H.Boylarov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**